ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 31
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

FRAZEOLOGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI VA O'ZBEK TILIGA BERILISH MUAMMOLARI.

Samandarova Mukarram Bo'riyevna,
Jo'rayeva Zamira Ishmuminovna,
Eshpo'latova Go'zal Gayratovna
Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti.

Annotatsiya. *Mazkur tezis materialida frazeologiya fanining mustaqil fan sifatida shakllanishi, jahon va o'zbek frazeolog olimlarining frazeologiya terminiga munosabati hamda frazeologiya fanining maxsus bo'limlari haqida qisqacha bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *frazeologiya (frazematika), frazeologizm, (frazema), idiomatika, idiofrazeomatika, frazeomatika.*

Аннотация. *В данном материале кратко описывается становление фразеологии как самостоятельной науки, отношение мировых и узбекских фразеологов к термину фразеология и специальным разделам фразеологии.*

Ключевые слова: *фразеология (фразематика), фразеологизм, (фразема), идиоматика, идиофразеоматика, фразеоматика.*

Annotation*. This material briefly describes the formation of phraseology as an independent science, the attitude of world and Uzbek phraseologists to the term phraseology as well as special sections of phraseology.*

Key words: *phraseology (phrasematics), phraseological unit, (phraseme), idiomatics, idiophraseomatics, phraseomatics.*

Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklar psixologik, kognitivsemantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etgan ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma sifatida talqin etiladi. An'anaviy tilshunoslikda til birliklari, jumladan, frazeologik birliklar asosan til xususiyatlari asosida o'rganildi. Frazeologik birliklarning transformatsiyasi, ularning yangilanish xususiyatlari nafaqat muayyan uslubiy mahsuldorlik manbai, shu bilan birga, yangi frazeologik birliklarning shakllanish omili bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda frazeologik birliklarni transformatsion, semantik-pragmatik, lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy xulosalar chiqarish jahon tilshunosligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilshunosligida davr ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan maqsad va vazifalar yechimiga yo'naltirilgan samarador va zamonaviy metodologik hamda tadqiq usullari asosida ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tilda barqarorlashgan

frazeologik birliklarning o'zgarishi va ularni modernlashtirish hamda yangi tushunchalarni ifodalovchi frazeologik birliklar shakllanishining vosita va usullarini atroflicha tavsif va tahlil etish o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biridir.

Tarjimada shaklan bir xil bo'lmasa ham mazmunan muqobil bo'la oladigan frazeologik iboralarni uchratishimiz mumkin. Masalan, quyidagi ingliz tili iboralarni tarjima qilganda mazmunan o'xshashliklarni uchratishimiz mumkin:

Golden opportunity - Juda zo'r imkoniyat

The green light – Ruxsat

Green with envy - Juda hasadchi, juda xavasi kelgan

(Have a) green thumb - Qo'li gul, bog' ishlarida malakali

See red - Juda jahli chiqmoq.

Yoki shunga o'xshash misollarni Italyan tilidagi iboralarni tarjima qilganimizda ham uchratishimiz mumkin. Masalan:

•Abbassare le ali – So'zma – so'z tarjimada Qanotini pasaytirmoq, Ibora sifatida Oddiyroq bo'lmoq, o'zini oddiy tutmoq. Bu iboraning sinonimi - Volare più basso.

•Avere la memoria di un elefante – So'zma-so'z tarjimada, Filning xotirasiga ega bo'lish. Ibora, Xotirasi juda yaxshi degan ma'noda ishlatiladi. Masalan:"Mio nonno si ricorda moltissime cose, ha la memoria di un elefante – Bobom ko'p narsalarni eslab qoladi, uning xotirasi juda yaxshi.

•Avere una fame da lupi – Bo'ridek och bo'lish, rostdan qorni juda och. Masalan: "Mamma, cosa c'è per cena? Ho una fame da lupi!" - Oyi, kechga nima ovqat bor? Men juda ochman!

•Dare una mano - Yordam qo'lini cho'zmoq/yordam bermoq

•Alzare le mani - Qo'l ko'tarmoq/urmoq.

•Chiedere la mano - Qo'lini so'ramoq (qiz boladan turmushga chiqishini so'ramoq) ma'nosida ishlatiladi.

•Essere in gamba - O'zini o'nglab olgan, oyoqqa turgan.

•In buone mani - Ishonchli qo'llarda, himoyada bo'lmoq;

•Fatto a mano – Qo'lda yasalgan, yasama •Avere le mani lunghe - Qo'li uzun bo'lmoq, yetarli qudrati bo'lmoq. •Andare con la testa bassa - Boshi egik, uyaladigan odam ga nisbatan ishlatiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Har bir milliy tilda badiiy nutqning hissiy-ta'sirchanligi va obrazliligini yuzaga keltiruvchi shunday barqaror so'z birikmalari tez-tez uchrab turadiki, ularning paydo bo'lishi xalqlarning tabiat va jamiyatdagi narsa va voqea-hodisalarga nisbatan qarashlari, munosabatlari bilan mustahkam bog'liqdir: odamlar narsa va hodisalar dunyosiga nisbatan o'z munosabatlarini obrazli, hissiy-

ta’sirchan, hayajonli tarzda ifoda etish maqsadida turli-tuman muqoyasaga asoslangan lisoniy vositalardan foydalanadilar. Tasvirlanayotgan shaxs, narsa, xislat-xususiyat, voqea-hodisa va tabiat manzaralari ko’pincha mubolag’ali tarzda kitobxonga yaxshi tanish obrazlar bilan muqoyasa qilinadi. Natijada tasvir yanada oydinlashadi, ifodaning obrazliligi oshadi, yuqori ta’sirchanlik va hissiy tuyg’u yuzaga keladi. Kishilarinng tabiat va jamiyatdagi narsa va voqea-hodisa

Ma’lumki, tilshunoslik maydonida frazeologiya umumiy tilshunoslikning yirik bo’limlaridan biri leksikologiyaning bir qismi sifatida o’rganilgan. Ammo, frazeologiyaning o’rganish obyekti hisoblangan frazeologik birliklarning o’ziga xos xususiyatlari leksikologiyaning obyekti hisoblangan leksik birliklar bilan bir nazariyaga to’liq mos emasligi, frazeologik birliklarni keng qamrovda o’rganishga bo’lgan ehtiyoj, tilshunoslikda frazeologiyaga bo’lgan yuksak qiziqish natijasi o’laroq paydo bo’lgan salmoqli frazeologik tadqiqot ishlari frazeologiyaning alohida mustaqil fan sifatida shakllanishiga sabab bo’ldi. Bu jarayonning boshlanish nuqtasi rus tilshunosi E.D.Polivanov nomi bilan bog’liq bo’lib, u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas balki mustaqil tilshunoslik bo‘limi ekanligini quyidagicha asoslab bergan edi: “Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning grammatik ma’nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarining grammatik ma’nolarini o’rganadi.

Ammo alohida olingan, ko‘chma ma’noli so‘z birikmalarining, individual ma’nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda.” [4, 56] E.D.Polivanovdan so’ng B.A. Larin, V.V. Vinogradov, A.V Kunin, I.A.Smirnitskiy, S.I.Abakumov, A.I Yefimov, A Y. Rojanskiy, H.M. Shanskiy, T.N. Fedulenkova kabi rus tilshunoslari ham frazeologiyaning mustaqil lingvistik soha sifatida rivojlanishiga o’z hissalarini qo’shdilar. O’zbek frazeologiyasining asoschisi Sh. Rahmatullayev hisoblanib, u birinchilardan bo’lib o‘zbek tilshunosligiga “frazeologiya” va “turg‘un birikmalar” tushunchalari, ularni tahlil qilishning asosiy qonuniyatlarini olib kirgan. [1, 25]. Shuningdek, o’zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojlanishi S.Kenesboyev, Y.Pinxasov, G.Bakiyeva, B.Yo’ldoshev, A.Mamatov, G’.Salomov nomlari bilan chambarchas bog’liq. Frazeologiya sohasi mustaqil fan sifatida shakllanar ekan, frazeologik birliklarni chuqurroq o’rganish, tahlil qilish, turli tizimlar doirasida muqoyasaqilish natijasida frazeologiyaga oid ko’plab masalalar o’z yechimini topa boshladi. Darhaqiqat, frazeologiyani o’rganish jarayonida, mazkur terminni almashtirish borasida takliflar ham kiritildi. Xorij tilshunosligida “frazeologiya” terminini “idiomatika” termini bilan almashtirish taklifi E.D.Polivanov [4, 90] tomonidan ilgari surilgan bo’lsa, o’zbek tilshunosligida frazeologik birliklarni o’rganuvchi mustaqil fan “frazemika” termini bilan yurilishi lozimligini

Sh.Rahmatullayev [2, 420] qayd etgan. Frazeologiya fani A.V.Kunin tomonidan 3 bo'limga ajratiladi va tilshunos bo'limlarni quyidagicha nomlaydi: "Фразеология состоит из трех разделов: идиоматика, идиофразеоматика (semi-idioms) и фразеоматика. Это деление основано на различных типах значения фразеологизмов: от более осложненных до менее осложненных". [3, 14] Shunday qilib, endilikda frazeologiya sohasining o'zi ham mustaqil fan sifatida o'z obyektiga, alohida bo'limlariga ega. Aslida A.V.Kuninning frazeologiyani bo'limlashtirish g'oyasi akademik V.V.Vinogradovning ingliz tili iboralarini struktur-semantik jihatdan qilingan klassifikatisiyasiga asoslangan. Bunda Vinogradov klassifikatsiyasiga ko'ra frazeologizmlarning 3 turi (frazeologik butunlik, frazeologik chatishma va frazeologik qo'shilma) endilikda frazeologiyaning alohida bo'limlarida, mustaqil obyekt sifatida o'rganilishi ustuvorlik qilmoqda. Frazeologiyaning dastlabki bo'limi – idiomatikada barqaror kombinatsiyalar ya'ni idiomalar o'rganiladi. Idiomalar to'liq yoki qisman qayta talqin qilingan ma'noga ega leksemalar bo'lib, bunday frazeologik birliklar struktur jihatdan har xil, ma'no jihatdan yo motivatsiyali yo motivatsiyasiz bo'lishi mumkin.[3, 15] Idiofrazeomatika bo'limining obyekti idiofrazeoma birliklari yoki idiofrazeomatizmlar hisoblanadi. Idiofrazeomatizmlar polisemantik frazeologik birliklar bo'lib, bunday turg'un iboralar, birinchi frazeosemantik variantlarda komponentlari mavjud, to'g'ridan-to'g'ri, lekin murakkab ma'noga ega bo'ladi, ikkinchi idiomatik variantlarda esa butunlay metaforik ma'no ifodalaydi. Masalan: "chain reaction" idiofrazeomatizmining birinchi ma'nosi ilmiy atama bo'lgan zanjir reaksiyasi bo'lsa, ikkinchi ma'nosi qayta ko'rib chiqish ni bildiradi. Frazeomatika bo'limga frazematik birliklar (noidiomatik frazeologik birliklar) kiradi. Bunday turg'un iboralar idiomatik xarakterli bo'lmagan frazemalar bo'lib, ular murakkab ma'noga egaligi bilan so'z-leksemalardan farq qiladi. Masalan: ingliz tilidagi Dutch frazeomatizm hisoblanib, bu so'z salbiy ma'noli bir qancha iboralar tarkibida mavjud, jumladan, Dutch bargain (bir tomonlama foydali bitim), Dutch comfort (biroz tasalli), Dutch courage (mastlikda qilingan jasorat). Xulosa sifatida davr ruhiga ega bo'lgan frazeologik birliklarni o'rganuvchi frazeologiya, mustaqil fan sifatida allaqachon shakllangan va bugungi kunda 3 bo'limga bo'lib o'rganilishi e'tirof etilmoqda.

XULOSA O'zbek tilidagi iboralarni chet tillarida va aksincha chet tillardagi iboralarni to'g'ridan to'g'ri asliyat tilidan o'zbek tilidagi tarjimada aks ettirish alohida ahamiyatga ega. Iboraning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi bir ma'no bo'lishi sababli, iboralarda go'yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish sodir bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Болтаева Барно Исакуловна. Ўзбек тили фразеологик бирликларининг трансформацияси. (семантик-прагматик таҳлил) . (PhD) Диссертацияси автореферати 5 b.
2. Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.
3. Xudoyqulov, B., & Jumayeva, M. (2022). FRAZEOLOGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI (ITALYAN TILIDAGI IBORALAR MISOLIDA). Academic research in educational sciences, 3(2), 698-706.
4.Xudoyqulov, B., & Yangiboyeva, M. (2022). ITALYAN VA INGLIZ TILLARIDAGI AYRIM RANG KOMPONENTLI IBORALARNING SEMANTIKASI. Academic research in educational sciences, 3(4), 564-570.
5. Xaydarova, D. Z. Komparativ frazeologik birliklar va tarjima // Molodoy ucheniy. — 2020. — № 18 (308). — S. 597-599. 6. Кудрат Мусаев. Таржима назарияси асослари: Дарслик.Т.: «Фан» нашриёти, 2005.-13 б.
6. https://dictionary.reverso.net/italian-english/
7. https://www.lexilogos.com/english/italian_dictionary.htm
8. Rahmatullaev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. (Frazeologik polisemiya, sinonimiya, antonimiya va omonimlik): Filol.f.doktr...diss. – Toshkent: O'qituvchi, 1966.- 264 b
9. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik) Toshkent: "Universitet" nashriyoti. 2006. – 464 b
10. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английкого языка. – Москва: Высшая школа, 1986. – 336 с. 4.
11. https://en.bab.la/dictionary/italian-english/